

## JIGAR PARAZITLARI: ULARNI ORGANIZMGA TUSHISHINI OLDINI OLISH VA DAVOLASH

<sup>1</sup>Botirov U.X., <sup>2</sup>Z.Q.Axmedova., <sup>3</sup>J.S.Mirzaqulov

1. Central Asian Medical University talabasi

2. Central Asian Medical University tibbiyot universiteti oq'ituvchilari

**Annotatsiya:** Jigar parazitlarining morfologiyasi, anatomiya va fiziologiyasi. Ularning organizmga tushish yo'llari va ulardan halos bo'lishidagi profilaktika ishlari.

**Kirish:** Jigar qurti jigarni zarorlovchi asosiy endoparazitlardan biri. U o'zining xayot siklida o't yo'llari, ichak va jigarda parazitlik qiladi va ko'payadi.

**Dolzarbli:** 1992-yilda 40 ta davlatda 15000 kishining fatsioliozga chalinganligi kuzatilgan. Ularning 19 tasini Yevropa davlatlari tashkil qiladi. Internet va adabiyot ma'lumotlariga ko'ra Fransiyada, Kubada, CHilida fatsiolioz epidemik xolatda o'tishi kuzatilgan. Peruning ayrim qishloqlarida 4,5-34% 15 yoshdan kichik bolalar fatsioliozga chalinganligi qayd etilgan. Moldaviyada 3900 kishini koprologik tekshirish natijasida ularning 2,4 % da fasciola tuxumlari topilgan. Markaziy Osiyo, [Kavkazorti davlatlarida](#), Ukrainada uni odamlar orasida kamdan kam holatlarda uchrashi qayd qilindi. Eronning Kaspiy dengiziga tutash hududlarida 1989-yilda odamlar fatsioliozining epidemiyasi kuzatilgan, undan katta yoshdagi kishilardan tashqari to'rt ming bolalar ozor chekkan. Tashqi muhitga antropogen ta'sirning oshishi mollyuskalar, gelmintlar va qishloq xo'jaligi hayvonlari populyasiyalarining o'zaro ta'siriga yuqori darajada ta'sir etmoqda. Bunday sharoitlarda malakologik va gelmintologik holatni o'rganish va bu boradagi uslublarni o'zgartirish kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Parazitlar:** *Jigar qurti* (*Fasciola hepatica*) - so'rg'ichlilar sinfiga mansub parazit chuvalchang turi. Tanasining rangi oqish yoki jigarrang, shakli yaproqsimon. Uzunligi 20–30 mm, eni 8–13 mm; oldingi uchki qismi konussimon toraygan. So'rg'ichlari ikkita. Oldingi og'iz so'rg'ichi o'rtasida og'iz teshigi bo'ladi. Og'iz so'rg'ichidan orqaroqda ikkinchi qo'shimcha qorin so'rg'ichi joylashgan. 1- va 2-so'rg'ichlar o'rtasida jinsiy teshigi, tanasining orqa uchida ayirish organi teshigi bor. Jigar qurti, asosan, tuyoqli sut emizuvchilar (qoramol, qo'y, echki, tuya, ot, cho'chqa va b.) hamda odam jigari o't suyuqligi yo'llarida parazitlik qiladi. O't va o't yo'lidagi yemirilgan hujayralarning parchalanish mahsulotlari bilan oziqlanadi, Jigar qurti bilan zararlanish fassiolioz deyiladi. Jigar qurti 2 xo'jayinda rivojlanadi. Tuxumlari axlat bilan suvga tushganida ulardan kiprikli miratsidiy lichinkasi chiqadi. Lichinka suvda suzib yurib, o'zining oraliq xo'jayini — kichik suv shillig'i (*Galba truncatula*)HH topib, uning

ichiga kirib oladi. Miratsidiydan spo-rotsistalar; rediyalar va serkariyalar rivojlanadi. Serkariyalar shilliq qurt tanasidan tashqariga chiqadi va navbatdagi lichinkalik davri — adoleskariyaga aylanadi. Jigar qurtining asosiy xo‘jayinlari — chorva mollari suv ichganda yoki suv ichida o‘sgan o‘tlarni yeganda sistaga o‘ralgan adoleskariyani ham yutib yuboradi. Chorva mollari ichagida sista yorilib, yosh jigar qurti chiqadi. Qurt ichak devorini teshib qonga o‘tadi; qon orqali jigarning o‘t suyuqligi yo‘liga o‘tib, bu yerda voyaga yetadi. Odamlar ham ko‘lmak suv havzalaridan suv ichganida Jigar qurti bilan zararlaniishi mumkin.

*Exinokok* (Exinokokkoz) *Echinococcus granulosus* oilasiga mansub [gijjaning](#) lichinkalik bosqichining odamning turli a‘zolarida rivojlanishidan kelib chiqadigan kasallikdir. U turli a‘zolari birlamchi va disseminatsiya yo‘li orqali zararlashi mumkin. Gijjaning eng ko‘p uchraydigan lokalizatsiyasi bu [jigar](#) (80 % gacha) va o‘pkadir. Exinokokkoz a‘zolarining destrukturizatsiyasi, organizmning allergizatsiyasi va og‘ir asoratlar bilan xarakterlanib, ko‘p hollarda nogironlik va o‘lim holatlariga olib keladi[1]. Odam va ba‘zi hayvonlar ([qo‘y](#), [cho‘chqa](#), ot, [qoramol](#)) oraliq xo‘jayin hisoblanadi. Kasallik ko‘proq Janubiy Amerika, [Avstraliya](#), [Gretsiya](#), [Xitoyda](#), sobiq Sovet Ittifoqida (Stavropol o‘lkasida, Qrim, [Ozarbayjon](#) va O‘rta Osiyoda) uchrab turadi. Aksarihollardajigarda vao‘pkada, umuman hamma organ va to‘qimalarda rivojlanadi. Exinokokkning yetilgan bosqichi mayda sestoda (tasmasimon gelmint) 2,5-5,5 mm kattalikda bo‘lib, unda boshcha (skoleks), ikki qator ilgaklari bo‘lgan bo‘yinch va 3-4 bo‘laklari bor. Exinokokkning asosiy xo‘jayini yirtqich hayvon ([bo‘ri](#), [tulki](#), it) hisoblanadi. Hayvon axlatlari orqali yetilgan exinokokk bo‘lakchalari tuxumchalar bilan suv, yer, yovvoyi o‘simliklar va mevalarga, changga tushadi. Bundan tashqari, ichakning tashqi teshigi orqali hayvon terisini zararlantiradi. Kishiga [infeksiya](#) so‘yilgan moldan, zararlangan go‘sh t mahsulotlari iste‘mol qilinganda yuqadi. Bunda onkosferali qavatsiz gelmint tuxumi me‘da devori, [limfa](#) va qon tomirlari orqali butun organizmga tarqaladi.

**Diagnostikasi:** Katsoni (Kassoni) anafilaktik reaksiyasi sentrifuga qilingan exinokokk pufagidan olingan suyuqlikdan 0,2 ml bilakning old qismi terisiga yuboriladi va 24 soat davomida kuzatiladi. Terida pufakcha bo‘lib qizarib, kattalashgani musbat reaksiyasi — Katsoni reaksiyasidan bir qadar aniqroq hisoblanadi. Bunda lateks antigenni adsorbsiya qilish uchun xizmat qiladi. Exinokokkozga tashxis qo‘yishda rentgen, ultratovush, tomografiya tekshirishlari yordam beradi. Bu kasallikni jigar raki, sirrozidan, gematoma va gemangiomalardan ajrata bilish kerak.

**Davolash:** Operatsiya qilinadi (zararlangan organ sog‘ to‘qimagacha kesib tashlanadi, fibroz kapsulasi bilan enukleatsiya qilib davolanadi, gemigepatektomiya, radikal exinokoktemiya). Jigar kistasi yiringlagan bo‘lsa, uni mumkin qadar bo‘shatib, kapsulasi marsupializatsiya qilinadi. Profilaktikasi. [Sanitariya](#)-veterinariya nazorati

o‘rnatiladi, aholi orasida sanitariya ishlari olib boriladi. Daydi itlar yo‘qotilishi, ovchi, uy itlari degelmintizatsiya (gijjalardan holi) qilinishi kerak.

**Xulosa:** Kundalik turmush tarzida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, meva va sabzavotlarni yaxshilab yuvib istemol qilish kerak. Mol na qo‘y qo‘shni mahsulotlarini chala pishirilgan holatda istemol qilmaslik kerak.

